



KHOREZM OASIS IN THE PERIOD OF THE GREAT SCIENTIST MAHMUD AZ ZAMAKHSHARI

Zafar Adilov

Associate Professor, (PhD)

head of the Department of General Professional Sciences Ma'mun University

Zafaradilov68@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Human, philosophy, science, knowledge, body, spirit, spirituality, religiosity, secularism, peace, and prosperity.

Received: 03.10.25

Accepted: 04.10.25

Published: 05.10.25

Abstract: In this article, the life, activity, and creative legacy of Mahmud az-Zamakhshari are explored in the context of the socio-philosophical, economic, and political aspects of the era in which he lived. At the same time, based on the characteristics of that period, the specific features of the development of the Khwarazm region are analyzed. Furthermore, the article provides an analytical discussion of Mahmud az-Zamakhshari's place in the world of science and his views on how knowledge elevates a person and leads them toward perfection.

ALLOMA MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY YASHAGAN DAVR DA XORAZM VOHASI

Zafar Adilov

Ma'mun universiteti Umumkasbiy fanlar

kafedrasi mudiri dotsent, f.f.d., (PhD)

Zafaradilov68@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Inson, falsafiy, ilm, bilim, tana, ruh, irfoni, diniy, dunyoviy, tinchlik va faravonlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmud az-Zamakhshariy yashagan davrdagi, ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy tomonlari bilan birgalikda allomaning hayoti, faoliyati va ijodi ochib berish bilan birgalikda, shu davr xususiyatlaridan kelib chiqib Xorazm o'lkasining rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan. Shu bilan birgalikda Mahmud az-Zamakhshariy ilm olamida tutgan o'rni, ilm insonni ulug'lashi va komillik darajasiga

koʻtarishi mumkinligi haqidagi qarashlari
tahliliy asosida ochib berilgan.

ХОРЕЗМСКИЙ ОАЗИС В ПЕРИОД ВЕЛИКОГО УЧЕННОГО МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ

Зафар Адилов

доцент (PhD), заведующей кафедрой

Общепрофессиональных наук

Zafaradilov68@gmail.com

Университета Мамуна

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
Человек, философия, наука, знание, тело, дух, духовность, религиозность, светскость, мир и благополучие.	В данной статье раскрывается жизнь, деятельность и творческое наследие Махмуда аз-Замахшарии в контексте социально-философских, экономических и политических особенностей эпохи, в которой он жил. Одновременно, исходя из характеристик того времени, анализируются особенности развития Хорезмского региона. Кроме того, на аналитической основе рассматривается место Махмуда аз-Замахшарии в мире науки, а также его взгляды о том, что знание возвышает человека и может привести его к совершенству.

Kirish. Mahmud az-Zamaxshariy tugʻilib yashagan Xorazm vohasi haqida tarixchilar maʼlumotlariga koʻra, Kaspiy dengizining sharqiy qirgʻogʻi, Orol koʻli va Amudaryo oraligʻidagi oʻlka “Havarazm” deb ataladigan diyor deb tasvirlangan. Bu oʻlka nomi baʼzi manba va maʼlumotlar, tarixchi va arxiologlarning fikrlariga koʻra “Xarzem” deb talaffuz qilinsada ham toʻgʻri deb hisoblanadi. Qayd etilgan koʻplab tarixiy manbalarda Xorazmning maʼmuriy va iqtisodiy markazi “Gurgench” shahri boʻlgan. Arablar bu shaharni “Kurkaniya” nomi bilan yaxshi bilishgan.

“Fahruʼl-Xorazm”, “Ustazuʼl-Arab”, “Vaʼl-Ajam”, “Jorulloh” va boshqa koʻplab ulugʻ nomli unvonlar bilan sohibi Mahmud az-Zamaxshariy va uning ilmiy maʼnaviy merosini yaxshiroq tushunish va tahlil qilish uchun allomaning unib-oʻsgan muhitini ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga qisqacha falsafiy tahlil qilish oʻrinli boʻladi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning “Nozik iboralar”. – T.: Kamalak, 1992., Amir Temurning Temur tuzuklari.- T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashr., 1996.; “Rabiʼ ul-abror va nusul axbor”. (“Yaxshilar bahori va xabarlar matnlari”). J. 3. Bagʻdod: 1975., Ebu Zayd Abdurrahmon b. Muhammed Ibn Haldun, Divonuʼl-Mubtedi weʼl-

Haber fi Tarihi'l- 'Arab we'l-Berber, thk. Halil Shahhade Doru'l-Fikr, Bayrut, 1988, p. 555.; Ebu'l-Ferec Abdurrahmon b. Ali b. Muhammad Ibnu'l-Cevziy, al-Muntazam fi Tarihi'l-Mulukiyy biz-Umem, tahk. Muhammad Abdulqodir Ato-Mustafu Abdulqodir Ato, Doru'l-Kutubi'l-Ilmiyye, Bayrut, 1992, I/136.; M.Матниёзов.Хоразм тарихи.1-жилд.Масъул мухәррир. Урганч.1997.- Б.123, kitob va darsliklardan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiyligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. Xorazmning geografik joylashuvi u yerdagi ma'muriy va iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida allomaning "Muqadimmatu'l-Edab" asaridagi ushbu falsafiy qarashlar shuni ko'rsatadiki:

"Misr, Mesopotamiya, Hindiston va shunga o'xshash mamlakatlarda tarixiy sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratgan serhosil daltalari bilan daryolar muhim ahamiyatga ega bo'lgani kabi, Xorazmdagi Amudariyning unumdor deltasi va qirg'oqlari mintaqaning madaniyati va rivojlanishining manbai sifatida ta'rif beriladi . "Bu esa sivilizatsiya rivojida muhim ro'l o'ynadi" ;

Ulug' alloma Ibn Xaldun Xorazm nomi to'g'risida o'zining "Divonu'l-Mubtada val-Habar fi Tarih" asarida bergan ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm shahar emas, Bu mintaqaning nomi deb keltiradi ;

Xorazmning yana bir nomi "Ahlu'l-Hivan" bo'lib. Chunki bu yurt xalqi qadr qimmatini yo'q amaldorlarga itoat etmaganligi uchun shunday tarif berilgan deb keltirilgan ;

Professor M.Matniyozov o'zining "Xorazm tarixi" asining 1-jildida, Xorazimga islom dini kirib kelishini shunday ta'riflaydi, Qutayba 712yilda Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarini bosib oldi va o'sha davirda Xorazimda boshlangan ichki qarama-qarshiliklar Qutaybani So'g'd yurishining to'xtatib Xorazimga qarshi yurishga jalb etadi. Xorazm garchi xalifalikka tobe bo'lsa ham, lekin uning alohida hukumati bor edi. Afrig' sulolasidan Xorazm shohlar hukmronligi davrida (305-995) Kat shahri markaz bo'lgan , xalifalik uchun bosh kant esa, Jayhun daryosining chap tomonidagi Kurkaniya markaz bo'lgan; Urganch shahri keyinchalik siyosiy va madaniy sohalarda balki savdoda ham asta-sekin katta ahamiyat kasb etdi. Kurkaniya odatda savdo markazi, ba'zan esa mustaqil boshqaruv markazi bo'lganligi sababli, arab geograflari Amudaryoga ergashib, Amuni qadimgi deb atashganlar.

Shuni ta'kidlash joizki, Xorazmning poytaxti Kurkaniya, iqtisodiy jihatdan katta yutiqlarga erishib, o'sha davrning ilm-fan va san'at markazlaridan biriga aylandi. Uning mintaqadagi ilm-fan sohasida eng katta roli Urgenchning 12-asri bo'ldi va shundan boshlab Gurganch ya'ni Urganch deb atala boshlagan. O'sha asrda tinmay taraqqiy etib, rivojlanib, Xurosonning yirik shaharlari

bilan bellasha oladigan ilm-fan va san'at markazlaridan biriga aylanib dunyo sivilizassiyasi beshiklaridan biri bo'ldi. Hamda Urganch geografik jihatdan muhim savdo markaziga aylandi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Sulton Otsiz (vaf. 552/1156) davridan boshlab, ayniqsa Tekish (vaf. 596/1200) va Alaaddin (vaf. 616/1220) hukmronligi davrida poytaxti Urganch shahar barchani o'ziga tortgan yorqin ilm-fan va san'at muhitiga aylandi. davrning yetuk olimlari. Atsiz 536 1141-yildagi Xuroson yurishidan so'ng bir qancha mashhur olimlarni Urganchga taklif etadi. Jumladan:

Hirakiy (vaf. 541/1146), Qodi Ebul-Fazl Kirmoniy (vaf. 545/1150), Ebu Mansur Abbodiy (vaf. 547/1152) va Qodi Husayn Arsabandiy (vaf. 548/1153) kabi ko'plab olimlar. Ular bu taklifni qabul qilib, Urganchga joylashdilar. Bulardan tashqari Xorazmda Zemahsheri (vaf. 538/1143), Fahriddin Roziy (vaf. 606/1209), Shihobuddin Hivakiy va shoir Reshiduddiyn Vatvat (vaf. 573/1177) yashagan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki Xorazmning geografik joylashuvi shunday ediki, u hujumlardan himoyalaniшни osonlashtirdi. Amudaryo va unga tutashgan kanallar tabiiy barrikadalar bo'lib, yuzlab shahar va aholi punktlarini yot bosqinlardan himoya qilgan. Vaqti-vaqti bilan to'g'onlar ochilib, ishg'ol qo'shinlari o'tadigan hududlarni suv bosdi. Shu sababli Xorazmni boshqargan hokimlar qisqa vaqt ichida mustaqil sulolalar barpo etishdi; Biroq, ba'zi geografik to'siqlar, masalan, atrofi keng cho'llar bilan qoplanganligi sababli, ularning suvereniteti faqat o'z mintaqalari bilan cheklangan edi.

Xorazm ham muhim savdo markazi edi. U Sibir tekisliklari va Eron, Xitoy va Hindiston kabi Osiyo mamlakatlarini Janubiy Rossiya va Yevropadagi Skandinaviya mamlakatlari bilan bog'lovchi asosiy yo'llarning tutashgan joyida joylashgan edi; Islom davrida, ayniqsa Dashti Qipchoq va Quyi Volga o'rtasida yuk tashishda juda muhim o'rin tutgan. Katta karvonlar Xorazmda yuzdan ortiq tovarlar bilan savdo qilganlar..O'sha davirda karvon yo'llari savdo sotiq bilan bir qatorda insonlarning ilm marifatga bo'lga qiziqishi ortdi. Karoni karim va hadisi shariflardagi jinsidan qattiy nazar xar bir shaxsning ilm olishga chaqirilishi mamlakatda ta'lim maskanlari bilan bir qatorda kutubxonalarning ham tashkil etilishiga sabab bo'ldi.

Natijalar. Ma'lumotlarga ko'ra, Xorazmshohlarning Anushtiginilar hukmronlik qilgan davrda (470/1077-628/1231) Merv, Mervur-Rud, Gurgench kabi ba'zi shaharlarda kutubxonalar bo'lgan. Mervda uch yil qolib, mashhur asari uchun hujjatlar to'plagan Yaqut al-Hamev (vaf. 626/1230) bu shaharda o'nta kutubxona borligini aytadi. Yoqut kitobxonlar hech qanday garov qilmasdan ma'lum muddatga bu kutubxonalardan kitob olishlari mumkinligini va bundan katta foyda olishini qo'shimcha qiladi .

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, islom dini qabul qilingandan keyin Xorazmda ilm-fan, she'riyat va adabiyotda katta taraqqiyoti kuzatildi. Xorazmshoh unvoniga ega musulmon

hukmdorlar olimlar, shoirlar va adabiyot arboblari himoya qilganlar. Xorazmliklar ham ilmga mehr qo'ygan, boylar madrasa va kutubxonalar qurish orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qo'shgan. Keyingi davrda Xorazmda hukmronlik qilgan Ma'muniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar va mahalliy sulolalar ham fan va san'atga qiziqish bildirgan. Shu tariqa Xorazm islom olamining eng muhim markazlaridan biri sifatidagi maqomini mo'g'ullar istilosigacha saqlab qoldi.

Az-Zamaxshariy yashagan davr Islom jamiyatining turli xil millatlar, elat va xalqlardan tashkil topganligi bilan xarakterlanadi. Islom mamlakatlarining kengayishi o'z navbatida turli-tuman xalqlarni, urf – odatlarni kishilik jamiyatiga olib kirar edi. Turli-tuman, katta-kichik millatlar qorishib ketgan va hammasi bitta mafkura – islom mafkurasiga bo'ysundirilgan edi. O'sha davrda inson va jamiyat tabiiy va tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda din bilan bog'liq edi.

Xuroson va Movarounnahrda asosan uchta millat – arab, fors va turkiylarning salmog'i katta va sezilarli edi. Ularning o'zaro munosabatlarida muayyan muammolar, manfaatlar doirasi mavjudki, bunga alohida e'tibor qaratish lozim.

Saljuqiylar davlatining siyosiy nufuzi butun islomiy mamlakatlarda sezilarli darajada edi. Turkiy millat vakillari yoppasiga islomni qabul qila boshladi. Ular dinni qabul qilish bilan birgalikda arab tilini ham o'rgandilar. Bu borada hatto arablardan ham o'tib ketishdi. Biz bunga misol tariqasida az-Zamaxshariydan oldin yashab o'tgan ijod ahlidan "Muallim-us-soniy" ("Ikkinchi muallim") Abu Nasr al-Forobiy (vafoti 951), "As-Sihoh" muallifi Ismoil ibn Hammod al-Javhariy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ibn Sinolarni sanab o'tishimiz mumkin. Az-Zamaxshariy asrida saljuqiylar – turkiylar hukumat subyektlari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida hal qiluvchi rol o'ynasalarda, biroq davlat idora tizimida forsiyzabon kishilar ham ko'pchilikni tashkil qilardi. Bunga misol tariqasida Nizomulmulkni keltirishimiz mumkin. Nizomulmulk vazirlik mansabida o'tirib davlatning siyosatda, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini to'g'ri belgilashda saljuqiylarga ko'maklashdi.

Xulosa. Xorazm ahli islomni sekin-asta qabul qildilar va shuning barobarida arab tili ham yoyildi. Bu haqda o'z asarlari orqali Beruniy, Maqdasiy, Yoqut al-Hamaviy, Ibn Battutalar batafsil va atroflicha ma'lumot qoldirganlar. Bu yerdagi turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar haqida to'la ma'lumotga ega bo'lgan, turli etnoslarga mansub kishilarning maqsad, manfaatlarini to'g'ri tahlil salohiyatiga ega az-Zamaxshariy bu jamiyatning afzal jihatlari haqida shunday yozadi: "Xorazmning afzal jihati shundan iboratki, u adl va tavhid ahli yo'li bo'lmish to'g'ri yo'ldan bormoqda".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nuri Yüje, Muqadimmetu'l-Edeb (Hvarizm turkcha va tarjima Shuʼster nusxasi), Otaturk nomidagi oliy madaniyat, til va tarix instituti TDK nashrlari, Anqara, 1993, 3-bet.
2. Ebu Zayd Abdurrahmon b. Muhammed Ibn Haldun, Divonu'l-Mubtedi we'l-Haber fi Tarihi'l- 'Arab we'l-Berber, thk. Halil Shahhade Doru'l-Fikr, Bayrut, 1988, p. 555.
3. Ebu'l-Ferec Abdurrahmon b. Ali b. Muhammad Ibnu'l-Cevziy, al-Muntazam fi Tarihi'l-Mulukiy biz-Umem, tahk. Muhammad Abdulqodir Ato-Mustafo Abdulqodir Ato, Doru'l-Kutubi'l-'Ilmiyye, Bayrut, 1992, I/136.
4. М.Матниёзов.Хоразм тарихи.1-жилд.Масъул муҳаррир. Урганч.1997.-Б.123
5. Shihobuddin Ebu 'Abdulloh Yaqut al-Hameviy, Mu'cem'ul-buldon, 2-nashr. Doru Sadir, Bayrut, 1995, V/114-116
6. Buyuk Islom tarixi, (Tug'ilgandan to hozirgi kungacha) komissiyasi, Chag Yay. Istanbul, 1993 yil, IX/21.
7. Ebul Qosim Hamza b. Yusuf b. Ibrohim es-Sehmi, Tarihu Curcan, thk. Muhammad Abdulmuid Xon, 'Alemu'l-Kutub, Bayrut, 1987, s. 43
8. Shihobuddin Ebu 'Abdulloh Yaqut al-Hameviy, Mu'cem'ul-buldon, 2-nashr. Doru Sadir, Bayrut, 1995, V/114-116.
9. Kadirberganovna, A. Z. (2023). Myths and legends about the saints of Khorezm. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(2), 50-52.
10. Abidova, Z. (2018). Pilgrimage sites and shrines of Khorezm oasis (historical and ethnological research): A dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in History.